

YANGI O'ZBEKISTON VA YANGI IMKONIYATLAR

Kenjaboyeva Mavluda Ikrom qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti 2-kurs talabasi.

rajabovamuhabbat995@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14019724>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Yangi O'zbekistonni barpo etishda amalga oshirilayotgan islohotlar, qonunchilik sohasidagi o'zgarishlar haqida so'z yuritilgan hamda bu borada ba'zi takliflar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, demokratik islohotlar, yoshlar, ta'lim, jamoatchilik nazorati, mediatsiya, yurist, shaxsiy kabinet, appellatsiya, javoblar varaqasi, xalqaro imtihon.

NEW UZBEKISTAN AND NEW OPPORTUNITIES

Abstract. This article talks about the reforms being implemented in the establishment of New Uzbekistan, changes in the field of legislation, and some proposals in this regard.

Key words: New Uzbekistan, democratic reforms, youth, education, public control, mediation, lawyer, private office, appeal, answer sheet, international exam.

НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН И НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ

Аннотация. В данной статье рассказывается о реформах, реализованных в процессе создания Нового Узбекистана, изменениях в сфере законодательства, а также представлены некоторые предложения по этому поводу.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, демократические реформы, молодежь, образование, общественный контроль, медиация, адвокат, личный кабинет, апелляция, лист ответов, международный экзамен.

Vatanimizning kelajagi, farovonligi, gullab yashnashi ko'p jihatdan yurtimizda amalga oshirilayotgan demokratik-huquqiy islohotlar bilan bog'liq. Barchamizga ma'lumki, keyingi yillarda yurtimizda barcha sohalarda bir qator ijobjiy o'zgarishlar yuz bermoqda. „Yangi O'zbekiston“ degan nom tom ma'noda reallikka aylanmoqda. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ana shu islohotlarning bosh tashabbuskori va ularning markazida turgan islohotchi rahbardir. Prezidentimizning lavozimga kirishish tantanali marosimida aytgan: „**Yangi muddatga lavozimga kirishayotgan Prezident sifatida jonajon Vatanimizning bugungi kuni va kelajagi uchun ma'suliyat va javobgarlikni chuqur his etgan holda aytmoqchiman: Xalqimiz bilan boshlagan demokratik islohotlar yo'lini yanada qat'iy davom ettiramiz va bu yo'ldan hech qachon ortga qaytmaymiz. Yangi O'zbekistonni birgalikda, albatta, barpo etamiz!**“¹ so'zları Vatan, millat oldidagi ulug' qasamyoddır. Ya'ni bu bizga ishonch bildirilganini, Yangi O'zbekistonga biz ham nima qo'sha olardim, deb qarab turmay, bilim, intilish va g'ayratimiz bilan hissa qo'shishimiz lozimligini uqtiradi. Biz yoshlarning imkoniyatlarimiz keng. Til bilishda, texnika va texnologiya sohasida. Jahon tajribalarini o'rganib, o'zimizga tatbiq etish bizning vazifamiz. Shuni har birimiz vijdodan his qilmog'imiz va shunga qarab ish tutmog'imiz lozim.

¹ <https://kun.uz/uz/news/2021/11/06/xalqimiz-bilan-boshlagan-demokratik-islohotlar-yoldan-hech-qachon-ortga-qaytmaymiz-shavkat-mirziyoyev>

O‘z oldiga rivojlanish, obod va erkin hayot, adolatli davlat tizimini barpo etishdek ulkan maqsadni qo‘yan har qanday davlat mashaqqatga to‘la, sinovli yo‘llarni bosib o‘tishi muqarrar.

O‘tgan besh yil davomida mamlakatimizda xalq farovonligini oshirishga, ijtimoiy muammolarni bartaraf etishga qaratilgan bir qator islohotlar o‘tkazildi. So‘nggi paytda ko‘pgina masalalarda, jumladan, „propiska“, chet davlatga borish uchun „stiker“, majburiy mehnat, paxta va g‘allaga davlat buyurtmasini belgilash kabi tartiblardan voz kechish bo‘yicha qarorlar qabul qilindi.

Hozirgi vaqtida plastik kartochkadagi pullarni bankomat orqali naqd pulga aylantirish, milliy valyuta kursimizning „qora bozor“da – bir xil, banklarda esa boshqacha bo‘lishi, xorijiy valyutalarni sotib olish, fuqarolikka ega bo‘lish, yurtimizning istalgan hududidan uy-joy va mol-mulk sotib olish hamda ularni ro‘yxatga qo‘yish bilan bog‘liq muammolar tarixda qoldi. Yaqin oragacha har yili 7-8 million odam paxta terish uchun majburiy safarbar qilinardi. Mana 3 yildan buyon xalqimiz bu mashaqqatdan qutuldi. Qanchalik mashaqqatli bo‘lmasin bu sohada klaster tizimi joriy qilindi. Ijtimoiy sohada ham davlatimiz tomonidan bir qancha islohotlar o‘tkazildi. Xususan, „Temir daftar“, „Ayollar daftari“, „Yoshlar daftari“ kabilarning joriy etilgani xalqimizning ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlami uchun katta yordam bo‘ldi.

Birgina „Obod qishloq“ va „Obod mahalla“ dasturi doirasida 2021-yilda barcha shahar va tumanlardagi jami 7794 ta qishloq va mahallada umumiyligi 20,8 trillion so‘mlik qurilish, ta’mirlash va obodonlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Ta’kidlash kerakki, milliy tariximizda qishloq va mahallalaarimizni obodonlashtirishga hech qachon bunchalik katta mablag‘ ajratilmagan, eng muhimmi, ularning rivojiga bu qadar jiddiy e’tibor berilmagan edi².

Barcha sohada amalga oshirilayotgan islohotlar va yangilanishlar bilan birqalikda, oldimizda hali hal etilmagan muammolar ham borligini esdan chiqarmasligimiz zarur. 2021-yilning 2-noyabr kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida „Yashil makon“ umummilliy loyihasini amalga oshirish uchun videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Unda 10-dekabrga qadar daraxt ekish bo‘yicha „Dolzarb 40 kunlik“ e’lon qilindi. Mazkur loyiha doirasida yiliga 200 million tup daraxt va buta ko‘chatlarini ekish rejalashtirilgan. Bu orqali shaharlardagi yashil maydonlarni amaldagi 8 foizdan 30 foizgacha oshirish maqsad qilib qo‘yilgan. Lekin shunday bo‘lsa ham, daraxtlar asossiz ravishda kesilayotgani, bunga hokim va mutassaddi rahbarlarning o‘zi sababchi bo‘layotgani to‘g‘risida ommaviy axborot vositalarida xabarlar tarqaldi.

Xususan, Andijon viloyati perinatal markazi hududidagi 12 tup nina bargli daraxtlar 2022-yilning 16-yanvarga o‘tar kechasi kesib tashlangan. Qizig‘i shundaki, bu ish Andijon shahar obodonlashtirish bo‘limi xodimlari tomonidan amalga oshirilgani, hokim tomonidan topshiriq berilgani va daraxtlarni kesish uchun kasallanish sabab bo‘lganini aytishgan³. Lekin daraxtlarda kasallanish alomatlari mavjud bo‘lmasligi. Bundan ham fchinarli holat 2021-yil 14-dekabr kuni tunda Toshkentning Yunusobod tumanida noma’lum shaxslar qurilish rejalashtirilayotgan hududdagi 10 ta daraxtni arralab ketishidir. Mazkur holat yuzasidan jinoiy ish ochilgan. Sodir etilayotgan bu ko‘ngilsiz holatlar keng jamoatchilikning noroziliginini yuzaga keltirmoqda.

²www.yuz.uz

³www.kun.uz

Ekoqo'mitaning xabariga ko'ra, yaqin orada kuzatilgan qumli bo'ronlarning uzoq saqlanib qolishiga sabab ham daraxtlarning kamligi bo'lgan.

Ayniqsa hozir pandemiya sharoitida kislorodli muhit barcha uchun zarur. Shularni inobatga olgan holda, bu masalada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va bu bo'yicha alohida mexanizm ishlab chiqilishi kerak.

Bilamizki, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi tizimida ham bir qancha islohotlar o'tkazildi. 2017-yilda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev „Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida“gi Farmonni imzoladi. Bu farmon asosida fuqarolar yig'inlarining uyushmasi sifatida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika kengashi tashkil etildi. Shuningdek, fuqarolar yig'ini raisining o'rinnbosari – yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchi lavozimi joriy etildi. Bu islohotlar orqali mahalla institutining yanada rivojlanishiga zamin yaratildi. Yana shuni ham hisobga olish kerakki, fuqarolarning ko'pchiligi biror bir nizo yuzaga kelsa qayerga murojaat qilish kerak ekanligini, qanday hujjatlar zarurligi haqida ma'lumotga ega emas. Advokat yollash, birorta yuristga murojaat qilish uchun esa hammaning ham imkoniyati yo'q. To'g'ri, respublikamizda bepul xizmat ko'rsatadigan yuridik klinikalar mavjud. Lekin ular aholini to'la qamrab ololmaydi.

Agar „Mahalla yuristi“ lavozimi tashkil qilinsa va u tuman adliya bo'limiga biriktirilsa, ancha ijobjiy natijalarga erishish mumkin. **Birinchidan**, fuqarolar ortiqcha ovoragachiliklardan xalos bo'ladi va bepul yuridik yordam oladi. **Ikkinchidan**, biror er-xotin ajrashmoqchi bo'lsa, mahalla fuqarolar yig'ini ularni yarashtirmoqchi bo'ladi. Agar „yarashtiruv“ ya'ni **mediatsiya** xizmati ham yurist zimmasiga o'tkazilsa, ajralish holatlari keskin kamayishi mumkin. Chunki yurist vaziyatni huquqiy oqibatlari haqida, ajralsa, qanday vaziyat yuzaga kelishini, mulkiy nizo kabilarni huquqiy asoslari bilan tushuntiradi. Dunyo bo'yicha mediatsiya xizmati bilan faqat yuristlar shug'ullanadi. **Uchinchidan**, bu orqali yuristlarning ham ish bilan ta'minlanish darajasi oshadi. Mehnat bozorida har bir yuristni ish bilan ta'minlash mushkul. Bu orqali ishsizlik muammosi ham bir qadar o'z yechimini topgan bo'lar edi.

Yangi O'zbekiston yurtimiz yoshlariga juda ko'plab imkoniyatlar yaratib bermoqda.

Hukumatimiz tomonidan yoshlarga berilayotgan e'tibor tahsinga sazovordir. O'tgan yillar davomida oliy ta'lim muassasalari soni va qabul kvotalari ko'paytirildi. Kirish imtihonlarida eng yuqori ball to'plagan 200 nafar yoshlar uchun Prezident granti joriy etildi. 7 yilga mo'ljallangan imtiyozli ta'lim kreditining joriy etilishi, „Bo'lajak olim“ tanlovi g'oliblariga loyihalari uchun 50 milliard miqdorida mablag' ajratilishi, xalqaro imtihonlarda yuqori ballni qayd etgan yoshlarga imtihon xarajatlarini qoplab berilishi kabi imkoniyatlar ko'pgina yoshlarning hayotda o'z o'rmini topishi, yanada ko'proq izlanishiga sabab bo'lmoqda.

Har yili minglab yoshlar oliy ta'lim muassasalarida o'qish istagini bildirib, kirish imtihonlarini topshiradi. Natijalar chiqqandan so'ng esa kimlardir xursandchilikdan ichiga sig'masa, kimlardir yana qayta tayyorgarlikni boshlaydi. Lekin ko'pgina yoshlar to'plagan balidan norozi bo'lib, Davlat test markaziga appellatsiya tartibida shikoyat qilishadi. Agar surxondaryolik abituriyent shikoyat qilgan bo'lsa, shikoyati ko'rib chiqilishi uchun, uning o'zi Davlat test markaziga, ya'ni Toshkentga kelishi kerak. Appelatsiya bergen abituriyentlarning sonining ko'p ekanligi, Davlat test markazining faoliyatiga ham ta'sir qiladi, ham abituriyentlar uchun qiyinchilik tug'diradi. So'nggi 2-3 yildan buyon imtihon topshirish uchun ariza berish

masofaviy elektron tizim orqali amalga oshiriladigan bo‘ldi. Bu tizimda har bir abituriyent o‘z shaxsiy kabinetiga ega.

Agar natijalar chiqqandan so‘ng har bir abituriyentning shaxsiy kabinetida javoblar varaqasi bilan bирgalikda savol va javobi ham berilsa, ancha narsa oydinlashar edi. Misol uchun: 30-savol. Rim shahriga qachon asos solingan? To‘g‘ri javob: B) Mil.avv.753-yilda. (Tarix. Qadimgi dunyo 6-sinf: umumiy o‘rtatashlim maktablarining 6-sinfi uchun darslik / A. Sagdullayev, V. Kostetskiy. - Tuzatilgan va to‘ldirilgan beshinchchi nashr. - Toshkent.: «Sharq», 2017. 102-bet). Har bitta fan bo‘yicha umumiy 30 ta variant tayyorlanishini hisobga olsak, ularning javobini tayyorlash qiyinchilik tug‘dirmaydi. Agar shunday qilinsa, ko‘pgina ovoragarchilikning oldi olinar, shaffoflik va ochiqlik ta’minlar edi. Ko‘pgina abituriyentlar sarson bo‘lmas, vaqt ham, mablag‘ ham tejalar edi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, bugungi kunda O‘zbekiston demokratik yangilanishlar, keng imkoniyat va amaliy ishlar yurtiga aylanib bormoqda. Bu jarayon yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasidir. Bu yo‘lda maqsadlarning aniq qo‘yilganligi harakatlar samarasini ta’minlovchi eng muhim mezon hisoblanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganidek: „Bugungi kunda biz erishgan eng muhim natija ham aslida shu – demokratik islohotlarimiz ortga qaytmaydigan tus oldi“.

Ishonamizki, Yangi O‘zbekiston jahon maydonida o‘z munosib o‘rniga ega bo‘lgan, har tomonlama kuchli salohiyatga ega va farovon mamlakatga aylanadi. Bu esa biz yoshlarning bor imkoniyatimizni ishga solib o‘qishimiz, izlanishimiz va intilishimizga ham bog‘liqdir.

REFERENCES

1. „Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida“gi Prezident Farmoni

Foydalilanilgan internet manbalari:

2. www.lex.uz
3. www.kun.uz
4. www.yuz.uz